

TARIX VA JAMIYAT

HISTORY AND SOCIETY
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
ЖУРНАЛ

—
JOURNAL
2022

№3

Bosh muharrir:

Pardayev A.H. JDPI, tarix fakulteti dekani, t.f.n. dosent.

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Aqchayev F.Sh. JDPI, tarix fakulteti, t.f.b.f.d. (PhD), dosent.

Mas'ul kotiblar:

Saidov J.O. JDPI, Tarix fakulteti o‘qituvchisi

Xo‘janova M. JDPI, Tarix fakulteti o‘qituvchisi

Tahririyat a'zolari:

- 1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik,**
- 2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor,**
- 3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor,**
- 4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 7. Pardayev M.H. – tarix fanlari doktori, dosent,**
- 8. G‘oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dosent,**
- 9. Yarmatov R. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dosent,**
- 10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dosent,**
- 11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dosent,**
- 12. Toshboev F.E. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dosent,**
- 13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dosent,**
- 14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dosent,**
- 15. G‘ofurov J. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dosent,**
- 16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dosent**
- 17. Valiev A.X. – katta o‘qituvchi,**
- 18. Majidov A.S. – katta o‘qituvchi,**
- 19. Karimova N. – o‘qituvchi,**

Тарих ва Жамият илмий журнали
MILLIY MUSIQA RIVOJIDA XOTIN QIZLARING O'RNI

Muyassar Inomova -Jizzax DPI musiqa nazariyasi va metodikasi yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada arxeologik qazish jarayonlarida topilgan qadimgi musiqa san'atiga oid buyumlar, raqqos va raqqosalarning kiyinishi, cholg'u asboblari to'g'risida mualliflar tomonidan umumiy tahlil amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: Ayritom, Bo Szyu, Yuan Chjen, Avesto, Xorazm, musiqa, Xitoy madaniyati.

Arxeologik, yozma va etnografik manbalar o'zbek xalqi ajdodlarida ayollarga alohida hurmat ko'rsatilganligi, ularning nafaqat oilada, balki jamiyatda ham o'z nufuzi va o'rni bo'lganligi haqida ma'lumot beradi. Qadimgi turkiy xalqlarda ayol tabiatdagi eng buyuk yaratuvchi – momo yerga qiyoslangan. Ajdodlarimizda ayolga bo'lgan bunday munosabat ayolning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida tutgan o'rni, ularga bo'lgan hurmat haqida tasavvur beradi. Demak, juda qadimdan ayollar go'zallik va yasharish timsoli, millat yaratuvchisi sifatida alohida e'zoz topgan.

Xalq orasida saqlanib qolgan turli xil rasm-rusumlar, marosimlar va ayollar timsolida ifodalangan ayol xomiy (pari va farishta) tushunchalari yurtimizda keng yoyilgan. Qadimgi davrda din tabiatga sig'inish yo'li bilan rivojlangan va tabiatdagi ba'zi bir jarayon va narsalar qizlar, ayollar sifatida tushinilgan. Kishilar tasavvuridagi ins-jinslar, ruhlarning ko'pchiligi (momolar, parilar) ayrim ruhlar ayollar nomi bilan atalgan. Xorazmdagi hosildorlik va suv xudosi Ardvisura Anaxitaga o'xshash tarzda tasvirlanib, bu Xorazmda mil.avv. V-IV asrlarda keng yoyilgan (Toshboyev, 2018). Avesto oyatlarida u go'zal qiz timsolida, ona xudo, xomilador va tuqqan ayollarning qo'riqchisi sifatida ifodalangan. Demak, umay e'tiqodi o'troq aholi orasida ilk davrlardan mavjud bo'lgan.

Musiqa san'ati bilan bog'liq san'at asari dunyoga mashhur Termiz shahridan 18 km sharqda joylashgan Ayrtom yodgorligidan topib o'rganilgan. Bu yodgorlik Kushonlar davriga oid ibodatxona xarobasi bo'lib, undan har xil qiyofadagi va mazmundagi haykallar topilgan (Pidayev, 1990. B. 16). Ayrtom ibodatxonasida juda ko'p boshqa haykallar ham topilgan. Ularning ko'pchiligida osmon parilari devaputralar tasvirlangan. Parilar gulchambar va ichida xushbo'y modda solingan idishlar ko'tarib ketayotgan holatda aks ettirilgan. Mazkur obrazlar ham budda dini bilan bog'liqdir. Agar sozandalar Buddaga lazzat va zavq bag'ishlagan bo'lsa, u holatda parilar uning yo'lga gullar to'shaganlar va atir purkaganlar. Taxmin qilinishicha, Ayrtom ibodatxonasidan topilgan haykallar asosan Buddaning o'lim marosimi bilan bog'liq bo'lgan. Ayrtom haykallari, so'zsiz, ajdodlarimizning

Тарих ва Жамият илмий журнаלי

kushonlar davriga oid Baqtriya madaniyatining bag'oyat yuqori taraqqiyotidan guvohlik beradi.

Ayrtom ibodatxonasida ohaktoshdan yasalgan haykallarda aks etgan tasvirlar biz uchun muhim hisoblanadi. Shulardan biriga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Bu qachonlardir ibodatxona karnizini bezatib turgan uch sozandaning haykallaridir. Karnizning bir tomonida yuzini sal o'ngga burib turgan va chiltor chertayotgan kulcha yuzli, ko'zlarni katta, qoshlari tutashgan, qirra burunli, lablari qalin yosh ayolning haykali tasvirlangan. Ayolning egnida qimmatbaho kiyim, quloqlarida sirg'a, qo'llarida bilakuzuk, bo'ynida marjonlar bor (Pidayev, 1990. B. 17). Torga o'xshash cholg'u asbobini chalayotgan ikkichni ayol biroz chapga qarab turgan holatda tasvirlangan. Uning egnidagi kiyim birinchi ayolning egnidagi kiyimdan o'zining odmiligi bilan ajralib turadi. Qo'llarida bilakuzuk bor, quloqlarida sirg'a bor-yo'qligi bilinmaydi. Chunki ayolning boshi ro'mol bilan o'ralgan. Ayolning ro'mol o'rash uslubi diqqatga sazovor. Ro'molning bir uchi orqaga tashlangan, ikkinchi uchi esa ayol yelkasi va qo'lining yuqori qismini yopib turibdi. Bu ikki ayol oralig'ida akant yaprog'i tasvirlangan. Yaproq uchi oldinga biroz egilgan holatda aks ettirilgan.

Uchinchi haykalda g'abla chalayotgan yosh sozanda tasvirlangan. Sozandaning yigit yoki qiz ekanligini haykalga qarab aniqlash qiyin. Uning yuzi dumaloq, ko'zlari katta, qovoqlari solingan, qoshlari tutashib ketgan, sochlari kalta va jingalak. Sozanda labida kulgichlar joylashgan. Bu sozandaning quloqlarida ham sirg'a, qo'llarida bilakuzuk, bo'ynida marjonlari bor. Mazkur sozanda bilan tor chalayotgan sozanda orasida xuddi oldingidagidek akant yaprog'ining tasviri bor. Uchinchi sozandadan keyin ham yana bir akant yaprog'i aks ettirilgan. Bizningcha, bu qatorda yana ikki sozandaning haykali bo'lgan. Lekin ular bizgacha yetib kelmagan.

Tan imperiyasi davrida 727 -yilda Keshdan, 729- yildan Maymurg'dan, 713 va 727-yillarda Samarqanddan Xitoyga yosh yigit va qiz raqqosalar borganlar. Ular qirmizi ko'ylak, qizil zamshdan kovush kiyishib raqs ijro etganlar. Raqqosalarning chiqishlari maxsus sahnalashtirilgan va raqslar asosan ikki turga bo'lingan – birinchi tur raqslar shoirona nozik, gavda va qo'l barmoqlariga alohida e'tibor beriladigan harakatlar orqali nafis ijro etilsa, ikkinchi tur raqslar esa sho'h-shodon, shiddatli va akrobatik usullarda ijro etilgan (Berdimurodov, 2020,74). Ularning raqslar to'g'risida xitoylik shoirlar Bo Szyu va Yuan Chjenlar "Shamoldek charx o'rayotgan g'arblik qizlar" degan she'r ham bitganlar. Bu qizlardan xitoylik malikalar Yan va Rokshanlar sug'diy raqslarning bir necha ijro usullarini o'rganganlar.

Xitoy yilnomalarida keltirilgan bunday ma'lumotlarning to'g'riligini bu o'lkada olib borilgan arxeologik tadqiqotlar ham tasdiqlaydi. Shimoliy Xitoyda olib borilgan

Тарих ва Жамият илмий журнали

arxeologik qazilmalar davrida VI-VII asrlarga oid badavlat sugʻdiy aslzodaning qabri topilgan boʻlib, bu qabrdan chiqqan marmar toshtaxtaning yuqori qismida sugʻdiy aslzoda va uning xotini xizmatkorlari qurshovida uyushtirgan raqs sahnasi pastki qismida esa Xitoyga borib oʻzlarining sanʼatlarini namoyish etayotgan sugʻdlarning musiqa ansambili tasvirlangan. Ansamblda oʻntacha mashshoq ishtirok etgan. Ulardan bir nechtasi ud, ikkitasi nay, ikkitasi bir qoʻl bilan ushlab ikkinchi qoʻl bilan urib chalinadigan nogʻarasimon asbob ushlab olgan. Bitta sozanda esa arfa chalmoqda. Sozandalarning oʻrtasida raqqos tasvirlangan. Raqqosning harakatidan aniqrogʻi qoʻllarining tepaga qaratib tik holatda ushlab turishidan uning siltanib raqsga tushayotganligini anglash mumkin. Bunday raqsga tushish koʻproq erkaklar uchun xosligini hisobga olsak, bu yerda erkak raqqos tasvirlanganligi haqiqatga yaqinroqdir.

Xullas, keyinchalik ham juda qadimdan (matriarxat davridan) xalqimiz orasida mavjud boʻlgan musiqa sanʼatida ayollarning tutgan oʻrni yoʻqolmagan. Aksincha, bu maʼnaviy jarayon turk xalqlarining bola tarbiyalash tajribalariga diniy tushunchalar tarzida aralashib ketgan. Davrlar oʻtishi bilan, bu tushunchani mohiyati biroz oʻzgargan.

Adabiyotlar roʻyxati

1. Berdimurodov A.E. Amir Temur va Temuriylar davlati poytaxti. Sharq yulduzi. № 6. Toshkent, 2020.
2. Pidayev Sh.R. Sirli kushonlar saltanati. T., 1990.
3. Toshboyev F.E., Xolboyeva G. A. Прикладные искусства скотоводческого населения Узбекистана и их исследование. Молодой ученый (Международный научный журнал). Kazan, 2018. № 47 (233).